



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

IJTIMOIIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайбергеневич – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилюфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зокидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdieva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

MAHALLA VA MENEJMENT

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Ta'lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba	4
Abduramanov X., Zokirov Sh. Xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi	15
Xoliqova M. Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi	29
Norqulov H.D., Jumanov Sh.S. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari	40
Sodiqov F.F. Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi	55

OILA VA JAMIYAT

Yulchiyeva D.X. Oilada barqaror muhitni ta'minlashda milliy hunarmandchilikning o'rni	61
Бабаджанова Н. Закономерности функционирования семьи как системы	71
Kholikulova Kh.Yu. Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people	81
Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari	90
Arabov N.U., Nasimov D.A. Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	98

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Bayjonov F.B. Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish	104
---	-----

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Nurmatov A.N. Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community	108
Narmetova Y.K. Sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari	117
Avezova D.G. Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari	126

Narmetova Yulduzخان Karimovna,
Toshkent tibbiyot akademiyasi psixologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. dotsent
yulduz-narmetova@mail.ru



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish muammolari, shu sohadagi tadqiqotlar tahlili hamda amaliy ishlar natijalari, shuningdek, "tibbiy psixolog" lavozimining joriy qilinishi, aholiga qulay va yuqori sifatli tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish masalalari, umuman olganda, sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы организации психологической службы в организациях здравоохранения, анализ научно-практической работы в этой области, а также введение должности «медицинский психолог» для оказания удобной и качественной медицинской и психологической помощи населению, выделяются социально-психологические основания.

Annotation. This article discusses the problems of organizing psychological services in health care organizations, the analysis of research and practical work in this area, as well as the introduction of the position of "medical psychologist" to provide convenient and quality medical and psychological care to the population, socio-psychological bases are covered.

Tayanch tushunchalar: psixologik xizmat, psixologik yordam, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, psixosomatika, psixoterapiya, bemor, shifokor, psixolog, psixoterapevt, ijtimoiy-psixologik so'rovnom, tibbiyot muassasi, psixodiagnostika.

Ключевые слова: психологические услуги, психологическая помощь, психопрофилактика, психокоррекция, психосоматика, психотерапия, пациент, врач, психолог, психотерапевт, социально-психологическое обследование, медицинское учреждение, психодиагностика.

Keywords: psychological services, psychological assistance, psychoprophylaxis, psychocorrection, psychosomatics, psychotherapy, patient, doctor, psychologist, psychotherapist, socio-psychological survey, medical institution, psychodiagnosics.

Bugungi kunda psixologik xizmat iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida, xususan, ishlab chiqarishda, savdo sohasida, moliya tashkilotlarida, tashkilot va muassasalarda kadrlarni tanlash, xodimlar bilan ishlash, korporativ madaniyatni shakllantirish va boshqa sohalarida tashkil etilmoqda.

Kirish. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda sogʻliqni saqlashning milliy tizimi tubdan oʻzgartirilishi va xalq salomatligi haqida qaygʻurish, sogʻlom turmush tarzini targʻib etish, tibbiy madaniyat va savodxonlikni oshirish, kasalliklarning oldini olish va profilaktikasi, shuningdek, sohaga tashxis va davolashning xalqaro standartlarini joriy qilish boʻyicha muhim Qaror va hujjatlar qabul qilindi. Ularda mamlakatda olib borilgan islohotlar natijasi oʻlaroq 25 yildan ortiq vaqt davomida oʻrtacha umr koʻrish darajasi 67 yoshdan 73,1 yoshgacha yetgani, umumiy oʻlim darajasi 1000 kishiga nisbatan 6,1 dan 4,8 kishiga qisqargani, onalar va bolalar oʻlimi koeffitsiyenti sezilarli darajada kamaygani koʻrsatib oʻtilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 18-oktabrda oʻtkazilgan sogʻliqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sifatlari dori-darmon bilan taʼminlash borasidagi islohotlar tahliliga bagʻishlangan yigʻilishda taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy xizmatlar koʻlami va sifati oshirishga qaratilgan 30 ga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2017-yil 16-martda imzolagan PQ-28-38 qarori bilan mamlakatda tez tibbiy xizmatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi maʼqullandi.

Maqsad va uni asoslash. Bugungi kunda psixologik xizmat iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida, xususan, ishlab chiqarishda, savdo sohasida, moliya tashkilotlarida, tashkilot va muassasalarda kadrlarni tanlash, xodimlar bilan ishlash, korporativ madaniyatni shakllantirish va boshqa sohalarida tashkil etilmoqda. Psixologik xizmat ijtimoiy ish sohasida, alohida ehtiyoji mavjud insonlar va keksalarni qoʻllab-quvvatlashda ham yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Ayni paytda, psixolog lavozimi Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar va Ichki ishlar vazirliklari tizimida joriy qilingan. Jazoni oʻtash muassasalarida psixodiagnostik va psixologik yordam xizmatining yoʻlga qoʻyilishi, jinoyat-qidiruv tizimida psixologlar ishtiroki, harbiy-tibbiy komissiyalarda maxsus psixologik Markazlarning tashkil etilishi psixologik xizmat sohasining kundalik hayotimizdagi ajralmas boʻgʻinga aylangani va amaliy ahamiyati tan olinganligini bildiradi. Turli mamlakatlarda tashkil etilgan milliy psixologik xizmat, V.V.Rubsov fikricha, tuzilmalari turlicha boʻlishiga qaramasdan, shunga oʻxshash vazifalarni hal qiladi. Oʻtgan asrning 80-yillarida N.S.Safarov, R.A.Ataxanov, A.D.Alferov, S.I.Ravikovich, F.I.Ivashenkov kabi olimlar amaliy psixologik faoliyatida asosiy

o'rinni psixologik ma'rifat masalalari egallashini ta'kidlaganlar, ya'ni psixologik xizmat psixologik bilimlarni targ'ib qilishga qaratilishi lozim, deb hisoblaganlar. Tadqiqotchilardan V.V.Mironenko, N.F.Talizina, V.A.Ivannikov, U.V.Ulyenkova psixologik xizmatda asosiy urg'uni psixodiagnostikaga berganlar, A.A.Verbitskaya, D.B.Bogoyavlenskaya psixologik xizmat tarbiya korreksiyasiga qaratilishi lozimligi, V.V.Stolin, Y.V.Ukke psixologik xizmat psixoprofilaktika va konsultatsiyadan iborat ekanligini ta'kidlaganlar.

Psixologik xizmatning keng tarqalgan sohasi ta'lim tizimi bo'lib, mazkur sohada psixologik yordamni tashkil etishning metodologik asoslanganligi va metodik ta'minlanganligi boshqa sohalardagiga qaraganda ancha ilgari ketganligiga ham tadqiqotlar tahlili, ham amaliy ishlar natijalari orqali ishonch hosil qilish mumkin. O'zbek olimi Sh.R.Barotov (2006) fikriga ko'ra, psixologik xizmatning nazariy va metodologik asoslari haqida gap ketganda psixologik xizmat obyekti va subyekti hisoblangan shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollari ko'rsatib beruvchi tadqiqotlarga ham alohida to'xtalishga to'g'ri keladi. Zero, shaxsning psixologik xizmat jarayonida namoyon bo'luvchi va rivojlantirib borilishi muqarrar bo'lgan o'ziga, o'zgalarga (shaxslararo), faoliyatga nisbatan tarkib topayotgan munosabatlarining ijtimoiy saviyasini tahlil qilmay turib, uning o'z-o'zidagi noxush hislardan, o'zgalalar bilan hamkorlik o'rnatishi bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlardan, faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklardan psixologik muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lamini belgilab bo'lmaydi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili sog'liqni saqlash tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish muammosining ilmiy nuqtayi nazardan yetarlicha yoritilmaganligi va bu borada turli xil, bir-biriga qarama-qarshi fikrlar va g'oyalar mavjudligini ko'rsatdi. L.G.Matveyeva klinik psixologiya bugungi kunda dunyoda eng ko'p tarqalgan psixologiya mutaxassisligi bo'lib, psixologik amaliyotning turli sohalarida mehnat qiluvchilarning 41% i tibbiyot psixologiyasi sohasiga tegishli ekanligini ta'kidlaydi. Yetuk mutaxassis bo'lish uchun klinik psixolog 3000 soatli trening dasturini o'zlashtirishi lozimligi, ularning ichida mijozlar bilan ishlash va superviziya borligini uqtirib o'tadi. Shu jumladan, muallif Rossiyada klinik psixologlar tayyorlash muammolariga to'xtalar ekan, uning didaktik, nazariy va amaliy tomonlariga alohida e'tibor qaratadi. I.N.Gurvich zamonaviy jamiyatda maqsadga yo'naltirilgan psixologik yordamga muhtoj guruhlar

Psixologik xizmatning keng tarqalgan sohasi ta'lim tizimi bo'lib, mazkur sohada psixologik yordamni tashkil etishning metodologik asoslanganligi va metodik ta'minlanganligi boshqa sohalardagiga qaraganda ancha ilgari ketganligiga ham tadqiqotlar tahlili, ham amaliy ishlar natijalari orqali ishonch hosil qilish mumkin.

Tibbiy-psixologik xizmat, shuningdek, somatik, nevrologik va asab-ruhiy xastaliklar bilan ogʻrigan bemorlarni rehabilitatsiya qilish tizimida ham muhim oʻrin egallaydi.

paydo boʻlganligini, salomatlikning ijtimoiy-psixologik muammosi ortib borayotganligini taʼkidlaydi. Psixolog olimlardan G.M.Andreyeva, V.V.Boyko, Y.N.Yemelyanov, Y.S.Kuzmin, B.F.Lomov, A.G.Maklakov, T.A.Nemchin, L.A.Petrovskaya, K.K.Platonov, Y.D.Xomskaya; psixiatrlar V.A.Abramov, Y.A.Aleksandrovskiy, V.M.Yeleyxer, L.I.Vasserman, I.Y.Gurovich, N.M.Jarikov, D.N.Isayev, V.Y.Kagan, B.D.Karvasarskiy, O.V.Kerbikov, V.V.Kovalyov, D.Y.Melexov, V.V.Nechiporenko, Y.L.Nuller, Y.Y.Raxalskiy, L.L.Roxlin, S.B.Semichov, V.Y.Semke, P.I.Sidorov, F.I.Sluchevskiy, V.A.Tashlikov, B.S.Frolov, L.K.Xoxlov, V. M.Shumakov ishlarida salomatlik va kasallikning sotsial-psixologik tomonlari yoritib berilgan, lekin shunga qaramasdan, amaliy psixologik yordam borasida sobiq ittifoq mamlakatlari Gʻarb mamlakatlaridan ancha orqada ekanligi juda koʻp mualliflar tomonidan eʼtirof etiladi. Zero, tibbiy adabiyotlarda maʼlumot berilishicha, poliklinikalarda nevropatologga murojaat etayotgan bemorlarning 49–57% i, terapevtlarda davolanayotgan bemorlarning 34–47% i psixoterapevtik muolajaga muhtoj. Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, psixologlar barcha klinik va davolash-profilaktika yoʻnalishlarida ishlashlari zarur va ularning har birida oʻziga xos vazifalar bajarilishi kerak.

V.V.Guldan fikricha, poliklinikalarda tibbiy-psixologik yordam kabinetlari tarmoqlarining tashkil etilishi hamda “tibbiy psixolog” lavozimining joriy qilinishi aholiga qulay va yuqori sifatli tibbiy-psixologik yordam koʻrsatishni taʼminlaydi. Mazkur kabinetlarda faoliyat yurituvchi psixologlarning asosiy vazifasi psixosomatik va somatopsixik patologiyani, chegaraviy asab-ruhiy buzilishlarni, kasallik oldi holatlarini oʻz vaqtida aniqlash va psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Tibbiy-psixologik xizmat, shuningdek, somatik, nevrologik va asab-ruhiy xastaliklar bilan ogʻrigan bemorlarni rehabilitatsiya qilish tizimida ham muhim oʻrin egallaydi. Bu borada psixolog bemorga psixik va bosh miya funksiyalari buzilishlarini neyropsixologik va patopsixologik diagnostika qilish, ikkilamchi psixoprofilaktik chora-tadbirlar olib borish, bemor shaxsiga xos xususiyatlardagi oʻzgarishlar korreksiyasini, zarur boʻlganda psixoterapevtik muolajalarni amalga oshirish orqali yordam koʻrsata oladi.

Bu boradagi asosiy munozaralar sogʻliqni saqlash tizimi uchun psixologlar qayerda tayyorlanishi kerak – tibbiyot institutlaridami yoki universitetlardami, tibbiyot psixologi shifokor maʼlumotiga ega boʻlishi kerakmi yoki universitetni tamomlagan psixolog ham tibbiyot psixologi

sifatida ishlay oladimi – mana shu mavzularda boradi. Hayotiy tajribalar universitetni bitirgan psixologlarning klinikada amaliy ish uchun tayyor emasligini ko'rsatyapti. O'z navbatida, shifokorlarda ham bemor psixologiyasi, kasallikning kechishi va davolash samaradorligiga inson ruhiyatining ta'sir ko'rsatish xususiyatlari bo'yicha bilimlar ham yetarlicha emasligi namoyon bo'lmoqda. Aksariyat shifokorlar asosiy e'tiborni kasallikning klinik ko'rinishi, laboratoriya va instrumental tadqiqot metodlari natijalariga qaratgan holda, bemorga o'z individual-tipologik xususiyatlari, muomala doirasi, shaxslararo munosabatlar xarakteriga ega bo'lgan shaxs sifatida qaramaydilar. Natijada kasallikning tibbiy usullar bilan izchil davolanishiga qaramasdan, bemorning davolanish jarayoni cho'zilib ketadi va davolash choralarning samaradorligi ko'zga tashlanmaydi. Bu esa bemorlarda norozilik, tibbiy xizmat darajasi va shifokor malakasi haqida noto'g'ri xulosalarga kelishiga sabab bo'ladi.

Muallif tomonidan tuzilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi zamon va aholi talabiga javob bermasligini, hatto shifokorlarning ko'pchiligi klinik sharoitlarda psixologik xizmat qanday ko'rinishda bo'lishi zarurligi va psixolog aslida kim hamda u nima bilan shug'ullanishi haqida yetarlicha tasavvurga ega emasliklarini ko'rsatdi. Bizning fikrimizcha, bu holat somatik kasalliklar orqasida yashiringan psixologik muammolarni o'z vaqtida qayd etish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini pasaytiradi. Ta'kidlash joizki, bir qator shifokorlar bilan o'tkazilgan suhbat va so'rovnoma natijalaridan psixoterapevt aslida kim va u nima bilan shug'ullanadi, degan savolga ham turlicha javoblar olindi. Olib borilgan ushbu tadqiqotimiz zamonaviy jahon psixologiyasida kuzatilayotgan tendensiyani yanada yaqqolroq takrorladi, ya'ni tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat sohasida qanday ma'lumotga ega mutaxassis ishlashi kerak va uning klinika va poliklinika sharoitidagi asosiy funksiyalari nimalardan iborat, degan muammoning oxirigacha hal etilmaganligi mamlakatimiz sharoitida ham kuzatilishini tasdiqladi. Mazkur holat tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni yo'lga qo'yish aniq yo'nalishini belgilash va dasturini yaratish zaruratini tug'diradi.

Bir qator shifokorlar bilan o'tkazilgan suhbat va so'rovnoma natijalaridan psixoterapevt aslida kim va u nima bilan shug'ullanadi, degan savolga ham turlicha javoblar olindi.

1-jadval

“Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat tashkil etilishi kerak deb hisoblaysizmi?” savoliga javoblarning taqsimlanishi, N=508

508 nafar respondentning 95,5 foizi “ha” javobini bergan bo‘lsa, 3,5% foizi “yo‘q, o‘z ish joyida bo‘lishi kerak” degan javobni qayd etgan, 1% foizi esa “bilmayman” deb javob berganligini kuzatishimiz mumkin.

Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat tashkil etilishi kerak deb hisoblaysizmi?	Foizi
ha	95,5
yo‘q, o‘z ish joyi bo‘lishi kerak	3,5
bilmayman	1,0
Jami	100,0

508 nafar respondentning 95,5 foizi “ha” javobini bergan bo‘lsa, 3,5% foizi “yo‘q, o‘z ish joyida bo‘lishi kerak” degan javobni qayd etgan, 1% foizi esa “bilmayman” deb javob berganligini kuzatishimiz mumkin. Demak, respondentlarning aksariyati tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish tarafdori ekan.

2-jadval

“Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat yo‘lga qo‘yilsa, mazkur xizmatdan foydalangan bo‘larmidingiz?” savoliga javoblarning taqsimlanishi, N=507

Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat yo‘lga qo‘yilsa, mazkur xizmatdan foydalangan bo‘larmidingiz?	Foizi
ha	63,9
murojaat qilishim mumkin	13,8
yo‘q	13,4
bilmadim	8,4
tekin bo‘lsa	0,4
Jami	100

Ko‘rinib turganidek, respondentlarning 63,9 foizi “ha”, 13,8 foizi “murojaat qilishim mumkin”, 13,4 foizi “yo‘q”, 8,5 foizi “bilmadim”, 0,4 foizi “tekin bo‘lsa” mazmunida javob bergan. Javoblardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat respondentlar psixologga murojaat qilishni ma’qul deb bilishlarini bildirgan.

Shifokorlarga mo‘ljallangan anketaning oltinchi savoliga berilgan javoblar tahlili 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

“Faoliyatingiz davomida bemorni davolashga to‘siq bo‘layotgan psixologik muammolarga tez-tez duch kelgan va psixolog xizmatiga ehtiyoj sezgan paytlaringiz bo‘ladimi?” savoliga javoblarning taqsimlanishi , N=67

Faoliyatingiz davomida bemorni davolashga to‘siq bo‘layotgan psixologik muammolarga tez-tez duch kelgan va psixolog xizmatiga ehtiyoj sezgan paytlaringiz bo‘ladimi?	Foizi
ha	70,8
yo‘q	20,0
har doim ham emas	7,7
psixolog bo‘lishga harakat qilamiz	1,5
Jami	100

Shifokorlarning 70,8 foizi “ha” degan javobni, 20,0 foizi “yo‘q”, 7,7 foizi “har doim ham emas”, 1,5 foizi “o‘zimiz psixolog bo‘lishga harakat qilamiz” mazmunidagi javoblarni qayd etganlar. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aksariyat shifokorlar faoliyatida psixolog xizmatiga ehtiyoj mavjud.

O‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalaridan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida psixolog xizmatini yo‘lga qo‘yish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Har bir davolash muassasasining o‘ziga xos jihatlari, har xil kasallik turlariga oid bemorlarning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda ularning diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishda o‘ziga xos va o‘ziga mos yondashuvlarni qo‘llash psixolog-mutaxassislar ish faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi, deyish mumkin. Biroq ko‘rib turganimizdek, savolnoma natijalari tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi zamon va aholi talabiga javob bermasligini, hatto shifokorlarning ko‘pchiligi klinik sharoitlarda psixologik xizmat qanday ko‘rinishda bo‘lishi zarurligi va psixolog aslida kim va u nima bilan shug‘ullanishi haqida yetarlicha tasavvurga ega emas. Bu holat somatik kasalliklar orqasida yashiringan psixologik muammolarni o‘z vaqtida qayd etish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini pasaytiradi. Ta’kidlash joizki, bir qator shifokorlar bilan o‘tkazilgan suhbat va so‘rovnoma natijalaridan psixoterapevt aslida kim va u nima bilan shug‘ullanadi, degan savolga ham turlicha javoblar

O‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalaridan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida psixolog xizmatini yo‘lga qo‘yish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

*Kuzatishlarimiz
Toshkent
shahridagi
poliklinikalarda
psixonevrolog
faoliyati,
qo'llayotgan
metodikalari
psixolognikidan
deyarli farq
qilmasligini
ko'rsatdi.*

olindi. Psixoterapevt – tibbiy oliy ma'lumotga ega bo'lgan shifokor, psixiatriya yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan, biroq psixoterapiyadan xabari bor mutaxassis, degan javoblar ham uchradi. Universitet diplomiga ega psixolog psixoterapevt bo'la olmasligi shifokorlar tomonidan bir necha marotaba ta'kidlandi. Kuzatishlarimiz Toshkent shahridagi poliklinikalarda psixonevrolog faoliyati, qo'llayotgan metodikalari psixolognikidan deyarli farq qilmasligini ko'rsatdi. Shu jumladan, sinaluvchilarimiz orasidan psixiatrlar sud-psixologik ekspertizaga universitet ma'lumotiga ega bo'lgan psixologlar aralashayotganini ham nokompetentlikka yo'yidilar va bu ish bilan faqatgina tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan psixiatrlar shug'ullanishi kerakligini aytdilar.

Yakuniy qism. Olib borilgan ushbu tadqiqotimiz zamonaviy jahon psixologiyasida kuzatilayotgan tendensiyani yanada yaqqolroq takrorladi, ya'ni tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat sohasida qanday ma'lumotga ega mutaxassis ishlashi kerak va uning klinika va poliklinika sharoitidagi asosiy funksiyalari nimalardan iborat, degan muammoning oxirigacha hal etilmaganligi bizning mamlakatimiz sharoitida ham tasdiqlandi. Mazkur holat tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni yo'lga qo'yishning aniq yo'nalishini belgilash va dasturini yaratish zaruratini tug'diradi. Buning uchun esa birinchi navbatda klinik-psixologik tadqiqotlar yordamida surunkali somatik kasalliklar bilan xastalangan bemorlarda kasallik sharoitida yuz beradigan psixologik o'zgarishlarni aniqlash va psixologik xizmat ko'rsatish zaruratini asoslash lozim, deb hisoblaymiz.

O'tkazilgan tadqiqot yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalar berishimiz mumkin: sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmat faoliyatini olib boruvchi psixolog-mutaxassis bemorlar bilan ish olib borishi uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni psixolog-mutaxassisdan bemorlarga tolerantlik, empatiya, kommunikativ kompetentlik kabi xususiyatlarga ega bo'lish taqozo etiladi. Bunga tibbiyot o'quv muassasalari va psixolog-mutaxassislar tayyorlovchi universitetlar sharoitida malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yib erishish mumkin; aholi o'rtasida tibbiy-psixologik bilimlarni targ'ib qilish ham fikrimizcha, tibbiyot sohasida psixologik xizmatni yo'lga qo'yishning tarkibiy qismlaridan biridir. U yoki bu kasallikka chalingan bemorlar kasallik sharoitida psixologik holat o'zgarishlari xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lislari o'z vaqtida psixolog-mutaxassisga murojaat qilishlarini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 39.
2. Аскарлова Н.А., Намозов М.Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЗДАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ВРАЧОМ И БОЛЬНЫМ //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelске centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – №. 7. – С. 42-43.
3. Ахмедова М.Т. INFORMATION SECURITY IN INTERNAL AND EXTERNAL POLICY OF THE STATE //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – №. SPECIAL 2.
4. Баротов Ш.Р. Ўзбекистонда психологик хизмат асослари. – Тошкент, 2006.
5. Бойко Ю.П., Каминский Г.Д., Сельцовский П.П., Аппенянский А.И., Кыров Н.Е., Гончарова Э.Л., Петухов В.А., Каминская Э.В. Научное обоснование стратегии развития психотерапевтической и медико-психологической помощи в чрезвычайных ситуациях и при их последствиях: Методические рекомендации (№32). – Москва: Комитет здравоохранения. Правительство Москвы. 2001.
6. Бекмиров Т. Психологические особенности неврозов у подростков //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 10/S. – С. 541–547.
7. Гульдан В.В., Назаренко Ю.В. Психологическая служба в здравоохранении: состояние и перспективы. // Вопросы психологии. 1991. № 2. – Б. 177–179.
8. Каюмова Д.Т. Дифференцированная терапия тревожнодепрессивных расстройств в климактерии //Материалы «IX Международного конгресса по репродуктивной медицине». – Москва, – 2015. – С. 19–20.
9. Матвеева Е.В. Психологическая служба. – Киров: Изд-во ВятГГУ. 2007. – 63 с.
10. Melibayeva R. N. et al. Psychological mechanisms of development students' creative thinking // International journal of scientific & technology research. – 2020. – Т. 9. – №. 03.
11. Melibayeva R. N. Status and Prospects of Medical Psycho-Diagnostics in Uzbekistan //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 12. – С. 555–565.
12. Нарметова Ю. К. Актуальные проблемы организации психологической службы в клинических учреждениях //Человеческий фактор: Социальный психолог. – 2017. – №. 1. – С. 119–123.
13. Нарметова Ю. К. Особенности психокоррекционной работы с беременными женщинами // Контактная информация организационного комитета конференции. – 2016. – С. 35.
14. Нарметова Ю. К. Социально-психологический механизм организации психологических услуг в медицинских учреждениях (на примере больных с онкологическими заболеваниями) //Школа будущего. – 2015. – №. 3. – С. 148–153.
15. Нарметова Ю. Изучение социально-психологических подходов к проблемам здоровья и болезни //От истоков к современности. – 2015. – С. 304–306.
16. Narmetova Y., Kuldosheva G., Bekmirov T. The Psychological Services Role in the Psychodiagnostics and Psychocorrection of Psychosomatic Patients in the Psychoemotional Situation //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 12. – С. 249–256.
17. Nigmatov A. Psychological features of the formation of professional identification in medical staff. – 2021.
18. Халикулова Х. Ю. Функционирование дошкольных учреждений для детей с ограниченными возможностями (1991-2013 гг.) //Вестник науки и образования. – 2016. – №. 10 (22).

IJTIMOIY BOSHQARUV

СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

SOCIAL MANAGEMENT

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvoohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangiyo‘l tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.